

## TILDA TERMINLARNING KOGNITIV TAHLILI

Nigmatova Shaxina  
O'zbekiston Milliy universiteti,  
katta o'qituvchi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o`zbek maqollarining kognitiv – qiyosiy tahlil qilish nazariyasi, nazaryaning tarkibiy qismlari hamda ingliz va o`zbek xalq maqollarining qiyosiy – kognitiv tahlillaridan namunalar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** maqollar, paremiologiya, qiyosiy – kognitiv tahlil, Buyuk zanjir metaforasi.

**Аннотация:** В данной статье представлена теория когнитивно-сопоставительного анализа английских и узбекских пословиц, компоненты теории и примеры сравнительно-когнитивного анализа английских и узбекских народных пословиц.

**Ключевые слова:** пословицы, паремиология, сравнительно-когнитивный анализ, метафора Большой цепи.

**Annotation:** This article presents the theory of cognitive-comparative analysis of English and Uzbek proverbs, components of the theory and examples of comparative-cognitive analysis of English and Uzbek folk proverbs.

**Keywords:** proverbs, paremiology, comparative-cognitive analysis, Great chain metaphor

Fan hamisha rivojlanish va taraqqiyotda. Bugungi kunda u misli ko'rilmagan darajada jadal tus oldi. Bunga, bir tomondan, dunyo miqyosidagi globallashuv, fanlararo integratsiyaning kuchayishi, innovatsion texnologiyalar amaliy qiyamatining o'sishi ta'sir qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy manfaatlarning kuchayishi, geopolitik siyosat qamrovining kengaya borishi kabi qator omillar jiddiy sabab bo'lmoqda. O'zlikni anglashda tilning roli muhimdir. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev bu haqida to'xtala turib: "Eng muhim va dolzarb masalalardan biri – yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb - hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz», - deya ta'kidlagan edilar.

Ingliz va o`zbek maqollarining terminologik kognetiv tizimlari haqida gap ketganda ularning mohiyati bir-biridan ajralib turishi aniq bo'ladi, chunki ular turli xil tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda rivojlangan. Bu maqollarning qiyosiy-kognitiv tahlil qilishda ham bir qancha nazariyalarga e'tibor berishimiz, ularni o'rganib chiqishimiz lozim bo'ladi. Quyida Lakoff va Troynerlarning Buyuk zanjir Metafora nazariyasi qismlarini ko'rib chiqiladi. Lakoff va Tyorner maqollarning kognitiv jihatdan tahlil qilish bir qator tafsir jarayonlarini faollashtirishni o'z ichiga oluvchi, Buyuk Zanjir Metaforasi (The Great Chain Metaphor) nomli nazariya orqali amalga oshiriladi degan fikrni ilgari surdilar.

Hozirgi paytda jamiyat taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida tillararo so‘z omuxtalashish jarayoni jadallahshmoqda. Bunday jarayon o‘zbek tili leksikasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, tilimizning turli tillardan olingan o‘zlashma so‘zlar hisobiga boyishiga sabab bo‘lmoqda. Shunga muvofiq galdegisi ishlar o‘zbek tili leksikasidagi pedagogik terminlarni aniqlab olish, ularni ingliz va o‘zbek tillarida tahlil qilish, lug’atlarga olib kirish, leksik guruhlar va mikrosistemalarni tizimli o‘rganish, o‘rganilgan ishlarni kattaroq guruhlarda birlashtirish kabi vazifalardan iborat bo‘ladi.

*Birinchidan*, Umumiy ma’lumot (Generic is specific) metaforasi, “Life is journey” kabi misolda ko`riladigan umumiy kontseptual metaforalardan ajralib turadigan umumiy metafora hisoblanib, bu metafora maqollar foydalanuvchilari yoki tarjimonlariga maqollarda kodlangan aniq stenariy haqidagi bilimlaridan bahramand bo’lishda va ko’plab o’xshash vaziyatlarni tushunishda foydalanishga imkon beradi.

*Ikkinchidan*, Yaratilishning Buyuk Zanjiri (The Great Chain of Being) madaniy modelida aks ettirilgan e’tiqodlar to’plami mavjud bo’lib, ular o’zimiz va biz yashaydigan dunyo haqidagi tushunchamizni shakllantiradi.

Ushbu model tizimning uchinchi qismi, "Narsalarning tabiat" (The Nature of Things) haqidagi amaliy bilimlarimiz bilan birgalikda, dunyoning qanday ishlashi to’g’risida nazariyalarni shakllantirishga imkon beradi. Buyuk zanjir sub’ektlarni iyerarxiya bo'yicha tartiblaydi, shunda zanjirdagi har bir mavjudot quyida keltirilgan sub’ektlarning barcha ko'zga ko'ringan xususiyatlariga, shuningdek, yuqori darajadagi atributlarga ega. Aql-idrok va nutq xususiyatlariga ega bo’lgan va shu tariqa quyi darajadagi murakkab jismoniy narsalar, o’simliklar va hayvonlardan ustun bo’lgan bu iyerarxiyani eng yuqori pog'onasini egallaydi.

Mazkur ish ingliz va o‘zbek tillarida terminlarning kognetiv omili terminlar va ularning ma’no taraqqiyotini tadqiq va strukturaviy, semantik, kogntiv-konseptual va lingvomadaniy tahlil etish masalasiga qaratilgan. Buning uchun esa ushbu terminlarning o‘zbek va inliz tillarida tutgan o’rni, ularning ma’no taraqqiyoti va tarkibi kabi vazifalarni yoritish mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Kognetiv terminlar turli mazmun ko‘lamiga ega bo’lgan terminlar tadqiqotning obyekti bo’lib xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek va inliz tillarida qo’llaniladigan terminlarning strukturaviy-semantik va kogntiv-konseptual xususiyatlarini ham o‘z ichiga oladi. O‘zbek va inliz tillarida kognetiv terminlar qo’llanilishi tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish, terminlarning ma’no xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, ularning tildagi va madaniyatdagi o’rni hamda ahamiyatini belgilashdan iborat.

Kognetiv terminlar turlarga bolinadi:

- Terminlar yasalishi usullarini aniqlab olish;
- Terminlar taraqqiyotida kognetiv terminlar va ingliz tilining ta’sirini oydinlashtirish;
- Tilshunoslikda turli sohalarida ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarini belgilab olish;
- Terminlarni tahlil qilish turlari haqida ma’lumotlarga ega bo’lish;
- Terminlarning sinonimik, antonimik, omonimik, polesemantik kabi munosabatlarini aniqlash;
- Ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarining o‘quv lug’atlarida berilishi o‘rganish;

O‘zbek va ingliz tili terminlarning kelib chiqishi, ingliz tilidan o‘zlashgan terminlar va ularning o‘zbek tiliga tarjimasi tahlil qilishda sohadagi terminlarni o‘ziga xos xususiyatlari kognitiv va konseptual jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, manbalarga ilmiylik nuqtai nazaridan izohlar berib o’tildi va ikki tildagi ekvivalentlari keltirildi.

A. Tadqiqotning nazariy yangiligi: 1. Terminlarning yasalish usullarini oydinlashtirish; 2. Terminlarni semantik - struktur va kognitiv- konseptual tahlil qilish; 3. Pedagogikaning an'anaviy va zamonaviy tushunchalari va nazariyalarini o'rganish ; 4. Pedagogik terminlarning ta'lif jarayonidagi ahamiyatini o'rganish;

B. Tadqiqotning amaliy yangiligi: 1. Tadqiqot natijasida olingen ilmiy natijalardan o'zbek tili pedagogik terminlari lug'atini mukammallashtirishda, ulardagi tavsif va sharhlarni bir xillashtirishda, ularni o'zbek tili tabiatiga muvofiqlashtirishda qo'llash; 2. Tadqiqotda ko'rsatib o'tilgan tahlil usullarini boshqa sohadagi terminlarni ham tahlil qilishda qo'llash; 3. Tajriba – sinov ishining natijalarini ta'lif samaradorligini oshirish uchun qo'llash; 4. Ushbu ishda ko'rsatib o'tilagan terminlar so'nggi ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi.

Ushbu dissertatsiya shu sohada yaratilgan darslik va materiallar, maxsus kurslar uchun qo'shimcha material, o'zbek tilining zamonaviy lug'atlari uchun muhim material va manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'r ganilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra o'zbek va ingliz tili terminlarning matnlar va ularning tarjimasi, kognetiv terminlari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'r ganilgan. Ularning ko'pchiligi rus va ingliz tillari asosida terminlarni tahlil qilgan. Bizning tadqiqot ishimizda o'zbek va ingliz tillarida kognetiv terminlarni o'ziga xos xususiyatlari va muammoli jihatlari tahlil ostiga olinadi. Bu esa ingliz va o'zbek til terminologiyasida yoritib botiladi.

Shunday qilib, biz o'zbek va ingliz maqollarini kognitiv – qiyosiy tahlil qilib, taqqoslashda ularni bir necha toifalarga ajratish mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin:

1. Inglizcha maqol va matallar ularning o'zbekcha variantlariga to'liq mos kelganda to'liq ekvivalentlar:

As clear as day – “Kundek ravshan”;

Health is better than wealth – “Sog'lik oltindan qimmat”;

A sound mind in a sound body – “Sog'lom tanda sog' aql”;

2. Inglizcha maqol va matallar ma'nosi jihatidan o'zbek tilidan biroz farq qilganda qisman ekvivalentlar:

Better an egg today than a hen tomorrow - “Naqdi asal ,nasiyasi kasal”

Better pay the butcher than the doctor – “Kasalni davolagandan, oldini olgan yaxshiroq”;

When it rains it rains on all alike – “O'rmonga o't ketsa ho'l-u quruq baravar yonadi”

3. O'zbek tilida mos keladigan variantlarga ega bo'limgan va biron bir maxsus izlash va tushuntirishga muhtoj bo'lgan inglizcha maqollar va so'zlar:

A cat falls on his legs. Tarjimasi - Mushuk oyog'iga yiqiladi There's many a slip,, twixt the cup and the lip. Tarjimasi - ko'p siljishlar borki, ikkilangan finjon va lablar Where there is strong riding there is strong abiding. Tarjimasi- boshqaruv qayerda kuchli bo'lsa, shu yerda yashash yaxshi.

### **Adabiyotlar:**

1. Close R.A. A Reference Grammar for Students of English. - M.: Prosvescheniye, 1979. - 342 p.
2. Falk, J. Linguistics and language: a survey of basic concepts and implication. 2nd Ed, - Canada: Michigan University Press, 1978, -561p.
3. Fries Ch. The Structure of English. An Introduction to the Construction of English Sentences. - London.: Longman, 1963.- 385pg.
4. Galperin I.R., Stylistics. - M.: Higher School Publishing House, 1971. - 343p.

5. Íiraga M.K. Cultural, Psychological and Typological Issues in Cognitive Linguistic. Armsterdam, Philodelphia: Benjamin,1999.- 338 p.
6. Honeck, R. A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom. - USA.: Lawrence Erlbaum, 1997. - 277p.
7. Ilyish B.The Structure of Modern English. - L.: Prosvesheniye, 1971. - 366 p.
8. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
9. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
10. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
11. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
12. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
13. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
14. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
15. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
16. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
17. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).